

O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Axadova Sabina Qo'shmurod qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1484851>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda nutqni rivojlanirishda muloqotni shakllantirish usul va vositalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, nutq, muloqot, ta'lim jarayoni, tarbiya, motivatsiya, bola nutqi, kommunikativ, leksika, dialog, tafakkur.

METHODS OF FORMING DIALOGUE IN DEVELOPING STUDENTS' SPEECH

Abstract. This article scientifically analyzes the methods and means of forming dialogue in developing students' speech.

Keywords: student, speech, dialogue, educational process, upbringing, motivation, child's speech, communicative, lexicon, dialogue, thinking.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье научно анализируются методы и средства формирования диалога в развитии речи учащихся.

Ключевые слова: ученик, речь, общение, образовательный процесс, воспитание, мотивация, речь ребенка, коммуникативный, лексикон, диалог, мышление.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlanirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlanirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlanirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgaganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsiyal munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar;

tovushli munosabatlar. Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihatni uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihatni u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida-uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'yharakatlarni uyushtirish kalitidir. «Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi A. M. Borodich - Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur- obyektiv borliqning intihosi, til esa- fikrni boshqa kishilarga yetqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi».

Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdag'i bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

Biroq A.M.Borodich, F.A.Soxin, Y.I.Tixeyeva, O.S. Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejallashtirilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi. Jamoat tarbiyasi sharoitida ta'lim - bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shartsharoitlarni yaratish zarur. Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiyl vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riliqini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni

shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash, savod o‘rgatishga tayyorlash, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko‘zda tutishi lozim.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shartsharoitlarni yaratish zarur. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o‘z xalqining badiiy tilini o‘zlashtirib olishlari natijasida ularning to‘g‘ri og‘zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug‘atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish, og‘zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash, savod o‘rgatishga tayyorlash. Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug‘at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan nutqiy mahorat va ko‘nikmalar belgilangan bo‘lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko‘zda tutishi lozim.

Ona tilini o‘qitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko‘zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug‘atni o‘zlashtirish, nutqiy mahorat va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishning asosiy shakli – mashg‘ulotlardir. Shu bilan birga, mashg‘ulotlarni tashqil etishda eng ma’qul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo‘ladi: mashg‘ulotlarni ularning maqsadi, mazmuni va o‘tqazilish muddatini hisobga olgan holla rejalashtirish; bolalarning analistik-sintetik xarakterdagи nutqiy vazifalarni yechish mashg‘ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish, o‘xshashliklarini ajratish; tarbiyaviy xarakterdagи aniq masalalarni hal etish mashg‘ulot mazmuni, vaqtি va o‘tkazish metodini aniq belgilash; bolalarda nutqni shakllantirishga oid mashg‘ulotlarga qiziqish o‘yg‘otish; rejalashtirilgan mashg‘ulotlar o‘rtasida izchillikka rioya qilish.

Xulosa qilib aytganda bolalar bog‘chasida pedagogik nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir: (aqliy va nutqiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili; (nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili; (nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili; (bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta’minalash tamoyili; (nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili; (muloqotning ijobiy va emotsiyonal muhitini ta’minalash tamoyili. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishidan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir.

REFERENCES

1. Dursunov S., Axtamova N. Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini rivojlantirish // Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. –B.1040-1045.
2. Toshtemirova S. Bolalar nutqining o'yin faoliyatdan foydalanishning asosiy xususiyatlari// Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1068-1073 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 1068 www.ares.uz .
3. Ashurova O. Matabgacha yoshdagи bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish//PEDAGOGS international research journal www.pedagoglar.uz 340 Volume-5, Issue-1, March-2022.
4. Karimberganova G. Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq leksikasini rivojlanishi // "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI VOLUME 1, ISSUE 7, 2023. OCTOBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 179
5. Qurbanova M. Bekpo'latova T. Bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirishda o'yin va o'yinchoqlarning o'rni / www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5
6. Sharipova S.S. O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI O'STIRISHDA YOZMA ISHLARNING O'RNI // PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 7 – TOM 12 – SON / 2024-yil.
7. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
8. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
9. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 45. – №. 5. – C. 84-87.
10. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 45. – №. 5. – C. 88-91.

11. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY SALOHIYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 374-377.
12. Zoir o'g'li R. Z., Asror o'g'li A. A. QADIMGI XORAZM: O'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHIDA //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 378-382.
13. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
14. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
15. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
16. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
17. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
18. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
19. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
20. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
21. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
22. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
23. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
24. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.

25. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports, 1(7)*.
26. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 4(3)*, 432-437.
27. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education, 2(8)*, 1214-1222.
28. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research, 3(2)*, 87-93.
29. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research, 3(2)*, 1004-1011.
30. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research, 3(2)*, 500-507.